

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

**SHUKUR XOLMIRZAYEV ESSELARIDA ZAMON VA MAKON
KONSEPSIYASI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev esselarida zamon va makon konsepsiyasining badiiy-estetik talqini tadqiq etilgan. Adibning publitsistik va badiiy-falsafiy ruhdagi esselarida zamon kategoriyasi tarixiy xotira, shaxsiy kechinma hamda ijtimoiy tafakkur bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi tahlil qilingan. Makon esa nafaqat voqelik sodir bo'ladigan geografik hudud, balki milliy ong, ma'naviy qadriyatlar va ruhiy holatni ifodalovchi semantik maydon sifatida talqin etilgan. Maqolada zamon va makonning o'zaro dialektik birligi, retrospektiv kompozitsiya, xotira motivi hamda muallif "men"i orqali yaratilgan subyektiv makon xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: esse, zamon konsepsiyasi, makon konsepsiyasi, badiiy tahlil, milliy tafakkur, retrospektiv kompozitsiya, subyektivlik.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

*Наманганский государственный университет, профессор кафедры
узбекского литературоведения, кандидат филологических наук.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

**ПОНЯТИЕ ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА В ЭССЕ ШУКУРА
ХОЛМИРЗАЕВА**

Аннотация: Аннотация: В данной статье исследуется художественно-эстетическая интерпретация понятий времени и пространства в эссе Шукура Холмирзаева. В эссе писателя в публицистическом, художественно-философском духе анализируется проявление категории времени, неразрывно связанной с исторической памятью, личным опытом и общественным мышлением. Пространство интерпретируется не только как географическая область, где происходит реальность, но и как семантическое поле, выражающее национальное самосознание, духовные ценности и душевное состояние. В статье выявляется диалектическое единство времени и пространства, ретроспективная композиция, мотив памяти и характеристики субъективного пространства, созданного авторским "я".

Ключевые слова: эссе, понятие времени, понятие пространства, художественный анализ, национальное мышление, ретроспективная композиция, субъективность.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor of the Department of Uzbek
Literary Studies, Namangan State University, candidate of philological sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

**THE CONCEPT OF TIME AND SPACE IN THE ESSAYS OF SHUKUR
KHOLMIRZAYEV**

Abstract: *This article studies the artistic and aesthetic interpretation of the concepts of time and space in the essays of Shukur Xolmirzayev. In the essays of the writer in the publicistic and artistic and philosophical spirit, the manifestation of the category of time inextricably linked with historical memory, personal experience and social thinking is analyzed. Space is interpreted not only as a geographical area where reality occurs, but also as a semantic field expressing national consciousness, spiritual values and mental state. The article identifies the dialectical unity of time and space, retrospective composition, the motif of memory and the characteristics of subjective space created by the author's "I".*

Keywords: *essay, concept of time, concept of space, artistic analysis, national thinking, retrospective composition, subjectivity.*

Kirish

Shukur Xolmirzayev ijodida esse janri o'ziga xos o'rin tutadi. Uning esselarida nafaqat shaxsiy kechinmalar va zamonaviy hayot tafakkuri, balki milliy ong va tarixiy xotira ham o'z ifodasini topadi. Zamon va makon konsepsiyalari adibning badiiy dunyoqarashi va estetik tafakkurining markaziy komponentlaridan biridir. Zamon esa o'quvchiga voqealar konteksti, tarixiy jarayonlar va shaxsiy tajribalarni anglash imkonini beradi; makon esa voqelikni qabul qilish, hissiy-estetik tafakkur va ruhiy holatni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Esse janri Yevropa adabiyotshunosligida XX asr boshlaridanoq, xususan, 40-yillardan keyingi davrda tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganila boshlandi. Jumladan, adabiyotshunos Robert Langbaum "Esse zamonaviy adabiyot va madaniyat hayotida" nomli tadqiqotini yaratdi [5, 240]. Unda olim ingliz adabiyotida esse janri Malbranshadan boshlanadi, deydi. Shuningdek, olim zamonaviy ingliz essenavislari Fukidod singari yozuvchilarning esselarini tahlil qiladi. Ingliz adabiyotshunosligida esse adabiy janr sifatida terminlar lug'ati, qomusiy lug'atlarga kiritilgan [1, 98]. Ularda esse janrining qisqalik, erkin kompozitsiyalilik, maxsus fan tarmoqlariga xos mulohazakorlik belgisi, essening chegarasi aniqlanmasligi, aniq bir to'xtami yo'q ekanligi e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev esselarida zamon va makon konsepsiyasini tahlil qilish uchun ilmiy tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlar va usullarga tayangan:

1.Struktur-semantik tahlil – esselardagi zamon va makon obrazlari, ularning badiiy struktura ichidagi o‘rni va semantik funksiyalari aniqlanadi. Ushbu metod yordamida muallif subyektivligi, retrospektiv kompozitsiya va makonning obraziy xususiyatlari tahlil qilinadi.

2.Qiyosiy-tipologik usul – Shukur Xolmirzayev ijodi va boshqa o‘zbek esse yozuvchilari ijodi bilan qiyosiy tahlil orqali zamon-makon tasvirlarining milliy xususiyatlari, o‘ziga xos badiiy yondashuvlar aniqlanadi.

3.Poetik tahlil – esselar matnidagi obrazlar, metaforalar, til va uslub vositalari orqali zamon va makonning badiiy-estetik ifodasi o‘rganiladi. Shu yo‘l bilan adibning ijodiy individual uslubi ochib beriladi.

4.Analitik-sintez usuli – tanlangan materiallari tahlil qilinib, umumiy ilmiy xulosalar chiqarish uchun esselar bo‘yicha natijalar birlashtiriladi va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

5.Retrospektiv tahlil – adib esselarida vaqt va xotira elementlarining o‘rni, shuningdek, ularning makon bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Bu metod yordamida muallifning shaxsiy pozitsiyasi va tarixiy tafakkuri ochib beriladi.

Ushbu metodlar kompleks qo‘llanilishi natijasida Shukur Xolmirzayev esselaridagi zamon va makon konsepsiyasining badiiy-estetik mazmuni, ularning o‘zaro dialektik bog‘liqligi va muallif subyektivligi orqali yaratilgan makon tasvirlari ilmiy asos bilan tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar

Shukur Xolmirzayev esselarida zamon va makon konsepsiyasi tahlili natijalari quyidagicha shakllanadi:

1.Zamon konsepsiyasi. Adib esselarida zamon ikki asosiy o‘lchamda namoyon bo‘ladi: shaxsiy vaqt va tarixiy vaqt. Shaxsiy vaqt muallifning o‘z kechinmalari va tajribalarini ifodalaydi, tarixiy vaqt esa milliy xotira va jamiyatning rivojlanish kontekstini aks ettiradi.

Retrospektiv kompozitsiya elementlari yordamida adib o‘quvchini voqealarning oldingi davrlariga olib boradi, shu orqali vaqtning doimiy harakati va inson hayotidagi izlari badiiy tarzda ko‘rsatiladi.

Zamonning subyektiv talqini muallif “men”i orqali ifodalanadi, bu esa esse matniga shaxsiy falsafiy va psixologik ohang beradi.

2.Makon konsepsiyasi.Makon esselerde nafaqat geografik hudud sifatida, balki muallif subyektivligi, ma’naviy-estetik qarash va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq semantik maydon sifatida aks ettiriladi.

Tabiat, shahar va qishloq muhirlari adib esselerida milliy ruh, tarbiyaviy va axloqiy kontekst orqali talqin qilinadi.

Makonning badiiy-estetik funksiyasi o‘quvchida voqelikni qabul qilish, hissiy va estetik tajriba hosil qilish imkoniyatini yaratadi.

3.Zamon va makonning o‘zaro bog‘liqligi.Tahlil natijalariga ko‘ra, Shukur Xolmirzayev esselerida zamon va makon konsepsiyalari dialektik birlikda ishlaydi. Zamon voqealar oqimini belgilasa, makon ularning kontekstini, ruhiy va estetik fonini yaratadi.

Adib retrospektiv makonlar orqali vaqtning doimiy harakati bilan o‘quvchi ongida tarixiy va shaxsiy tafakkur sintezini hosil qiladi.

Milliy tafakkur va tarixiy xotira zamon-makon birligi orqali badiiy-estetik qabulga yetkaziladi.Adibning esselerida badiiy-estetik obrazlar orqali yaratilgan makon, vaqt va subyektiv tajriba o‘zbek essechiligida o‘ziga xos yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada, Shukur Xolmirzayev esselerida zamon va makon konsepsiyasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, muallif subyektivligi orqali milliy tafakkur, tarixiy xotira va shaxsiy kechinmalarni badiiy-estetik tarzda aks ettiradi.

Yozuvchining ushbu mulohazalari ham uning o‘z asarlarida real hayotni poetik talqin orqali ochib berganligi, shuningdek, xalqona ruh va milliy tilning badiiy imkoniyatlaridan samarali foydalanganligini tasdiqlaydi. Uning asarlarida til va uslubdagi sodda, ammo ma’nodor ifodalar, kompozitsion puxtalik va psixologik tahlil uning nasriy poetikasining asosiy komponentlari sifatida shakllangan. Shuningdek, adib ijodining poetik xususiyatlarini ilmiy-nazariy asosda chuqur tahlil qilish, o‘zbek adabiyotining zamonaviy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, esse Shukur Xolmirzayev ijodida katta rejadagi asar uchun pillapoya vazifasini o'tagan. Yozuvchi "Mafkura bobida o'ylar" essesida "Men" tilidan hikoya qilishning boshqacharoq usulini topadi. Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarida "kamina" tilidan hikoya qiladi, xuddi shunga o'xshash Shukur Xolmirzayev ham quyidagicha esseistik uslub yaratadi: "Har qanday xolis niyatli kishini ham ezgulik mafkurasi paydo bo'lgan ilk onlar qiziqtirishi tabiiy. Kamina ham shunga qiziqib, insoniyatning ibtidoiy, to'g'rirog'i, qabilachilik davrlariga nigoh tashlagan edim, beixtiyor Turon tuprog'idagi o'z kindik qonim to'kilgan makon ko'z oldimga keldi..."[6, 64]. Shukur Xolmirzayev esse matnida birlik son, I shaxs "Men" tilidan emas, ko'plik son, I shaxs "Biz" tilidan bayon etadi. Jumladan: "Biz mafkuraning din bilan bog'liq ekani, ammo bo'ysunavermasligi, kezi kelganda uni inkor etishi ham mumkinligi, mafkura insonning ... paydo bo'lishi haqida so'zlar ekanmiz..." [6, 64], deb berilgan parcha misolida ham kuzatishimiz mumkin. Har ikkala esseda ham essenavis kitoxonga, hatto o'z-o'ziga murojaat qiladi. "Oldi-ortingga qara" essesida yozuvchi bolalik xotiralari orqali milliy an'ana va qadriyatlarni, xususan, suzma xotin, aza bilan bog'liq marosim, sumalak pishirish, boychechak qo'shig'ining ijrosi, o'zbek kurashi, Tiniqoy kampir, Hazrat Ali haqidagi ertaklarni hikoya qiladi. Ular xususida ikki-uch xil mulohazalarini bayon qiladi. Jumladan, "Tiniqoy kampir" haqidagi ertakda kuylangan "Ayyuv bo'lsayam boyim edi, Ayyuv bo'lsayam bolam edi..." qo'shig'i haqida yozuvchi o'zining ikki xil paradoksini bildiradi: birinchisi, "bu afsona musulmonchilik davrida yaratilgan. Xotin kishi er kishiga bo'ysunishi kerak, er kim bo'lishidan qat'iy nazar, undan ajralmasligi kerak..."[7, 205]. Ikkinchisi, "Mening nazarimda, Tiniqoyning "Ayiqlik eri" hasratida aytadigan qo'shig'ida ham insonning tabiatga yaqinligi o'z ifodasini topgan"[7, 205]. Yozuvchining bu ikki xil mulohazasi bilan bahslashsa bo'ladi. Birinchi fikrida haqiqatan ham musulmon mamlakatlaridagi erning yarim xudo darajasida ekanligi to'g'ri ifodalangan. Biroq ikkinchi mulohazada essenavis yanada keng paradoksni o'rta tashlaydi. Umuman, Sh.Xolmirzayevning Tiniqoy kamprining hasratli qo'shig'ida ifodalangan ma'no-mazmunga bildirgan paradoksli fikrlariga qo'shilgan holda, biz

bu qo'shiqda avvalo, yolg'izlikning dahshatli azobi kuylanganligini ta'kidlamocchimiz. Chunki Tiniqoy kampirning aka-ukalari o'rmonga borib, uning ayiq erini o'ldirib, o'zini qishloqqa keltirganidan buyon yolg'iz umrguzaronlik qilmoqda. Odamlar uni ayiqqa erga tekkani uchun uning qo'lini so'rashmaydi.

Muhimi, Sh.Xolmirzayev ikkala esseda ham bolalik, oqilona kuzatuvlari bilan ilmni bog'laydi. Demak, bitta esseda falsafiy, ilmiy, badiiy, publitsistik, lirik-monolog kabi turli xil mulohazalar oqimi tez-tez almashinib turadi. Essenavisning "Avesto" asari, zardushtiylik dini haqidagi mulohazalari "Jamiyatning maqsadi, ya'ni mafkura bobida o'ylar" essesinde davom ettiriladi.

"Binafsha hidlang, amaki" muallifning eng yirik esselaridan biridir. Esse dastlab O'.Umarbekov haqida yozilgan edi. Bu haqda Sh.Xolmirzayev shunday deydi: "Tabiiy, Umarbekov bahonasida o'sha iste'dodlar haqida ham, umuman, 60-yillar avlodi to'g'risida, aniqrog'i, ularning shakllanish jarayoniga doir bildigimnida, essegga singdirganimni bilmay qolgandim"[8, 3]. Darhaqiqat, bu turkum esselar o'z-o'zidan davomiylikni taqozo etdi. Umuman, bu turkumga to'rtta esse: "Binafsha hidlang, amaki" (O'.Umarbekov haqidagi), "Farg'ona yo'llarida" (U.Nazarov haqidagi), "Issiq jon" (Sh.Xolmirzayev va A.Oripov haqidagi), "Binafsha hidlang, amaki" (B.Zokirov haqidagi) esselari birlashib, ularning barchasida O'lmas Umarbekov obrazi markaziy o'rinda turadi. Essening "Binafsha hidlang, amaki" deb atalishining ham o'ziga yarasha tarixi bor. Birinchi turkumda O'.Umarbekov bilan Sh.Xolmirzayev o'rtasida "Gulchi qiz" hikoyasi xususida tanqidiy suhbat bo'lib o'tadi. Aynan shu suhbatdagi O'.Umarbekov qahramon nutqidan olingan "Binafsha hidlang, amaki" jumlası esse sarlavhasiga asos bo'lgan. Sh.Xolmirzayev muallifga hikoyadagi lavhaning ishonarsiz chiqqanligini aytganida yozuvchi o'zining badiiy-estetik idealini yaratmoqchi bo'lganligini bildiradi. Esseda binafsha-ramziy ma'no tashigan. U g'aflatda yotgan millatni uyg'otish, badiiy-estetik g'oyadan Sh.Xolmirzayev unumli foydalanib, 60-70-yillar avlodi haqidagi xotiralarini "Binafsha hidlang, amaki" deb nomlaydi. Daslab O'.Umarbekovning insoniy adibona qiyofasini inkishof etishga bel bog'lagan Sh.Xolmirzayev keyinroq qahramonlarning o'ziga xos tabiatini,

xarakterini voqealar zahirida yanada tiniqroq aks ettirdi. “Binafsha hidlang, amaki” essasida ziyoli qatlami, yozuvchi, shoir, kompozitor, telemuhandis, rejissyor, aktyor singari san’at ahlari adabiy qahramon (U.Nazarov, O‘.Umarbekov, F.Musajonov, A.Oripov, O‘.Hoshimov singari shoir va yozuvchilar, kompozitor M.Burhonov, aktyor T.Azizov, estrada xonandasi B.Zokirovlar) siatida ishtirok etadi. Ularning ahvoli-ruhiyasi, adabiy hamkorligi, kechagi kunga va kelajakka munosabati batafsil hikoya qilinadi. Voqealar ishtirokchisi bevosita yozuvchining o‘zi, u voqealarni ko‘r-ko‘rona hikoya qilmaydi. Inson ruhiyatidagi ko‘zga ko‘rinmas eng mayda ichki psixologik jarayonlarni ham yozuvchi nazardan chetda qoldirmaydi. Har bir qahramonning botiniy va zohiriy olamini yozuvchi yangidan kashf etishga harakat qiladi.

Xulosalar

Shukur Xolmirzayev essalarida zamon va makon konsepsiyalari muallifning subyektivligi orqali badiiy-estetik tarzda ifodalanib, shaxsiy tajriba, tarixiy tafakkur va milliy ongni uyg‘unlashtiradi; zamon voqealar oqimini belgilasa, makon esa ularning kontekstini va ruhiy-estetik fonini yaratadi, bu esa essalar matnida dialektik birlikni ta’minlaydi.

Adabiyotlar

- 1.Dictonari of word literary terms. Ed.by.J.T.Shiplaey.- L., 1970.- P.106; Current literary terms. A.Dictonari of Originind USE.- L., 1980.- P.98.
- 2.Hamidova M. Badiiy tasvir va uslub qirralari: Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2024.- 188 b.
- 3.Hamidova M.O. The artistic and philosophical expression of the creative personality and aesthetic conception in Shukur Kholmirezayev’s essays // Science and innovation international scientific journal, Volume 5, Issue 1, 2026.- P. 69-74.
- 4.Кучкарова М.Х. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол.фан.номзоди... дисс.- Тошкент, 2004.- 134 б.
- 5.Langbaum R. The word from below: Essays on modern literature and culture.- Madison: Press, 1987.- P.240.
- 6.Холмирзаев Ш. Жамиятнинг мақсади, яъни мафкура бобида ўйлар // Тафаккур, 1999.- № 1.
- 7.Холмирзаев Ш. Тоғларга қор тушди.- Тошкент: Ёш гвардия, 1987.
- 8.Холмирзаев Ш. Бинафша ҳидланг, амаки // Туркистон, 1994.- 28 август.- Б.3.